O'ZBEKISTON IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA ENERGIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNI PROGNOZLASHDA ARIMA MODELIDAN FOYDALANISH.....	1159
Kuralbayev Jo'rabek Aybekovich	
IPO ORQALI KAPITAL JALB QILISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI	1163
Mamatmurodov Alisher Saparboyevich	
ВОЗДЕЙСТВИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ НА РАЗВИТИЕ БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ	1172
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
YANGI TITIB-TA'MINLAGICH TA'SIRIDA PAXTANI TITILISH JARAYONINING NAZARIY TAHLIL NATIJALARI	1178
Qurbanbaev Elyor Baxtiyarovich, Sobirov Doniyor Xolmurodovich	
TIJORAT BANKLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALARI.....	1183
Uralov Shavkat Makhramovich	
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARI.....	1188
Tuychiyev Abduraxmon G'ofurovich	
AGROTADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA EKSPORT LOGISTIKASI VA TA'MINOT ZANJIRINI OPTIMALLASHTIRISHNING IQTISODIY MEKANIZMLARI	1193
No'monov Otabek O'rmonjon o'g'li	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA INQIROZ SHAKLLANISHIGA MAKROIQTISODIY VA TARMOQ OMILLARINING TA'SIRI.....	1198
O'rinboyev Doniyorjon Baxtiyorjon o'g'li	
5LP LINTERIDAGI CHIGIT ARALASHTIRGICHNI MODERNIZATSIYA QILISH BO'YICHA BAJARILGAN ISHLARNING TAHLILI VA TADQIQOT YO'NALISHLARINI BELGILASH	1204
Nazirov Raxmatjon Rasulovich, Karimov Maxmud Raxmatovich, Abduqahorov No'monbek Oybek o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGIDA BUG'DOY YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA UNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI	1209
Azamqulov Nurbek Ulug'bek o'g'li	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT XARAJATLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	1215
Fayziyev Rabim Alikulovich, Tohirova Zarifa Shuhrat qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1221
Ajibayeva Raiya Maxsutovna	



CHAKANA SAVDO TARMOG'INING MILLIY IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	1225
G'aybullayev Sarvar O'ktam o'g'li	
MEHNAT BOZORI STRUKTURASI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	1232
Soatmo'minova Zarnigor Olimjon qizi	
KORXONALAR AUDITIDA BLOKCHEYN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	1237
Tuyinov Botir Ismatovich	
THE ROLE OF NATIONAL MENTALITY AND VALUES IN INSTITUTIONAL TRANSFORMATION PROCESSES.....	1243
Abdulmajeed Nabeel Azouz	
ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ HR-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПЛАТФОРМ: ВЫЗОВЫ И РЕШЕНИЯ.....	1250
Амирджанова Ситора Сунатовна, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммадович, Урозбоев Хайрулла Муродбойевич, Маматкулов Хумоюн Бобирович	
HUDUDLARNING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGINI OSHIRISH VA MAHALLIY BOSHQARUV VAKOLATLARINI KENGAYTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY SAMARADORLIGI: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL	1255
Sharipov Abror Komilovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM VA MEHMONXONA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION SIYOSAT	1260
Shokirov Firdavsbek Ulug'bekovich	
HUDUDIY RIVOJLANISHNI BAHOLASH METODOLOGIYASINING ILMIY MUAMMOLARI	1265
Sattorov Sanjar Abdumurodovich	
TRANSPORT TIZIMIDA YO'LOVCHI TASHISHNI TASHKIL ETISHNING ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	1271
Sevara Aytieva Allaberdiyevna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA LIKVIDLIKNI QOPLASH ME'YORI (LCR) DINAMIKASI VA LIKVIDLIK BOSHQARUVI SAMARADORLIGI	1279
Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN CHAKANA BANK XIZMATLARINI KO'RSATISHNING JORIY HOLATI TAHLILI	1286
Xikmetov Nodirbek Ikromovich	
O'ZBEKISTONDA TARIXIY-MADANIY TURIZM DESTINATSIYALARINING HUDUDIY RIVOJLANISHI VA SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH	1293
Ibroximov Nodirbek	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLINI IJTIMOY TA'MINOTINI TARTIBGA SOLISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARI.....	1299
Xusanov Baxodir Sheraliyevich	
QURILISH KORXONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	1302
Yahyoyev To'liqin Ismatulla o'g'li	
QASHQADARYO VILOYATIDA SUG'URTA XIZMATLARI RIVOJLANISHINING STATISTIK TAHLILI.....	1306
Ismoilov Sherzod Ismoil o'g'li	
ANALYSIS OF THE EFFECTIVENESS AND CURRENT STATE OF INVESTMENTS IN HUMAN CAPITAL IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	1310
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
MANAGEMENT SYSTEM TRANSFORMATION AS A STRATEGIC DRIVER OF SUSTAINABLE PRODUCTION EFFICIENCY IN INDUSTRIAL ENTERPRISES	1317
Kodirov Bekzod Khomidjonovich	



O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISH SHAROITIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARINI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	1322
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MOLIVAVIY BOSHQARUV TIZIMLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL VA INNOVATSION MEXANIZMLARI	1327
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li	
MINTAQANING TURISTIK VA DAM OLISH MAJMUASINI RIVOJLANTIRISHNI BOSHQARISH.....	1332
Q.A. Musaxanov	
CHORVACHILIK INFIRATUZILMASI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH	1336
Nurmanov Sherzod Xujayarovich	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО ТУРИЗМА И ВОЗМОЖНОСТЬ ЕГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1340
Усманова Диляфруз Каршиевна	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI KENGAYTIRISHDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINING METODOLOGIK ASOSLARI.....	1344
Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich	
O'ZBEKISTONDA SUG'URTA TASHKILOTI RISKLARINI BAHOLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY VA AMALIY JIHATLARI	1351
Sattorov Shohrux Maxmudjon o'g'li	
AUDITORLIK DALILLARINI TO'PLASH HAMDA UMUMLASHTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1358
I.Yeshpanov	
O'ZBEKISTONDA O'RMON XO'JALIGINI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA MOLIVALASHTIRISH	1365
Karimov Dilshod Turabboevich	
TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	1370
Saipnazarova Mohinur Utkir qizi	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI JALB QILINGAN MABLAG'LAR HISOBIDAN MOLIVALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	1373
Amonova Dilafro'z O'tkurovna	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI KENGAYTIRISHDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINING METODOLOGIK ASOSLARI.....	1377
Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich	
RAQAMLI BANK XIZMATLARI BOZORINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA BANKLARARO RAQOBATNING YANGI SHAKLLARI	1384
Karimov Odiljon Boqiyevich	
LOGISTIKA TIZIMLARINI RAQAMLASHTIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA VA ULARNING IQTISODIY TAHLILI.....	1394
Kucharova Shaxlo Sobir qizi	
MILLIY SUG'URTA BOZORIDA SUG'URTA XIZMATLARINI BOSHQARISH VA UNING OPTIMALLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI.....	1399
Umirov Abdusalom To'rayevich	
MOLIVAVIY INSTRUMENTLAR (IFRS 9) HISOBI	1406
Zaripova Sayohat Zafarovna	
PLYONKA QOPLAMALI POLIZ EKINLARI EKISH TEXNIKASIDA PUSHTA SHAKLLANTIRUVCHI ISHCHI ORGANLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH	1411
Nigmatjonov Sardor Abdumannobovich	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ MA'MURCHILIGIDA TO'LOVLAR TIZIMINING BUGUNGI KUNDAGI HOLATI TAHLILI.....	1416
Tangirqulov G'ulom Baxtiyorovich	



KAMERAL SOLIQ TEKSHIRUVIDA SMART TEKNOLOGIYALARNING SHAKLLANISHI

Mamaraimov Ilhomjon Rajabboyevich

Chilonzor tumani, Tirsakabod mahallasi hokim yordamchisi

Tel.: +998 93 473-00-83

E-mail: Investmentgroup83@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada Respublika davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada avtomatlashtirish orqali soliq nazoratini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Shuningdek, maqolada mavzuga oid adabiyotlar sharhi hamda ayrim huquqiy jihatlar yoritilgan. Bundan tashqari, soliq nazoratining yuzaga kelish sabablari, unga ta'sir etuvchi omillar hamda AKT orqali ularning oldini olish imkoniyatlari tahlil qilingan. Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida xulosalar shakllantirilib, tegishli ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq nazorati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ma'lumotlar bazasi, integratsiya, avtomatlashtirish, soliq to'lovchilar, davlat soliq xizmati.

Аннотация. В данной статье исследованы вопросы совершенствования налогового контроля посредством дальнейшей автоматизации деятельности органов государственной налоговой службы Республики. Также в статье представлен обзор литературы по теме и рассмотрены отдельные правовые аспекты. Кроме того, проанализированы причины возникновения налогового контроля, факторы, влияющие на него, а также возможности их предупреждения с помощью информационно-коммуникационных технологий. По результатам проведенных исследований сформулированы выводы, разработаны соответствующие научные предложения и практические рекомендации.

Ключевые слова: налоговый контроль, информационно-коммуникационные технологии, база данных, интеграция, автоматизация, налогоплательщики, государственная налоговая служба.

Abstract. This article examines the issues of improving tax control through further automation of the activities of the state tax service bodies of the Republic. In addition, the article provides a review of the relevant literature and discusses certain legal aspects of the topic. Furthermore, the causes of tax control, the factors influencing it, and the possibilities of preventing them through information and communication technologies are analyzed. Based on the conducted research, conclusions were formulated, and relevant scientific proposals and practical recommendations were developed.

Keywords: tax control, information and communication technologies, database, integration, automation, taxpayers, state tax service.

KIRISH

Mamlakatda soliq yukini soliq to'lovchilar o'rtasida adolatli taqsimlash va bozorda halol raqobat muhitini shakllantirishda samarali soliq ma'murchiligini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq nazorati samaradorligi esa soliq to'lovchilar va soliq obyektlarining to'liq qamrab olinganligi, soliq majburiyatlari hisobining to'g'ri va aniq yuritilishi hamda soliq nazoratining samarali amalga oshirilishi bilan belgilanadi. Iqtisodiy faoliyat turlari va shakllari kundan-kunga kengayib borayotgan zamonaviy sharoitda soliq bazasini to'liq qamrab olish faqat axborot texnologiyalari yordamida, biznes jarayonlarini avtomatlashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Soliqqa oid munosabatlarni raqamlashtirish, idoralararo elektron axborot almashinuvini kengaytirish hamda zamonaviy tahlil mexanizmlarini joriy etish soliq obyektlarini to'liq qamrab olish va soliqqa oid huquqbuzarliklarning oldini olish imkonini beradi.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 8-yanvardagi "Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1257-son qaroriga¹ muvofiq Davlat soliq qo'mitasining Yagona integratsiyalashtirilgan axborot-resurs bazasi tashkil etildi. Mazkur baza O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining eski tahrirdagi 84-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 30-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati idoralari axborot-kommunikatsiya tizimi faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1843-son qaroriga² muvofiq 50 dan ortiq vazirlik va idoralar bilan integratsiya qilindi. Natijada davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada avtomatlashtirish va soliq to'lovchilar uchun elektron xizmatlarni joriy etish imkoniyatlari kengaydi.

Ma'lumotlar bazalarini o'zaro integratsiya qilish natijasida davlat ro'yxatidan o'tgan tadbirkorlik subyektlari, budjet va budjetdan tashqari maxsus jamg'armalarga amalga oshirilgan to'lovlar, ko'chmas mulk obyektlari



hamda ular bo'yicha oldi-sotdi shartnomalari kabi 120 turdan ortiq ma'lumotlarni boshqa vazirlik va idoralardan elektron shaklda qabul qilish yo'lga qo'yildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6098-son Farmoni¹ bilan real vaqt rejimida idoralararo elektron axborot almashinuvi orqali soliq organlariga taqdim etiladigan qo'shimcha ma'lumotlar ro'yxati tasdiqlangan. Unga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, "O'zbekiston Respublika tovar-xomashyo birjasi" AJ, Kadastr agentligi, "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ, Moliya vazirligi G'aznachiligi, "O'ztransgaz" AJ hamda "Hududiy gaz tarmoqlari" AJ tomonidan soliq organlariga qo'shimcha ma'lumotlar taqdim etilishi belgilangan.

Bugungi kunda Davlat soliq qo'mitasining Yagona integratsiyalashtirilgan axborot-resurs bazasi orqali 45 ta elektron davlat xizmati hamda 40 dan ortiq soliq ma'murchiligiga oid dasturiy mahsulotlardan foydalanilmoqda. Soliq to'lovchilar uchun joriy etilgan elektron xizmatlar doirasida soliq va moliyaviy hisobotlarni taqdim etish, soliqlarni to'lash, soliq organlaridagi shaxsiy kartochka ma'lumotlari bilan tanishish, ortiqcha to'lovlarni qaytarib olish yoki boshqa soliq turiga o'tkazish, hisobvaraqa-fakturalarni yuborish kabi jarayonlar elektron tarzda amalga oshirilmoqda. Biroq davlat soliq xizmati organlarining ma'lumotlar bazasi qator vazirlik va idoralar bilan integratsiya qilinganligi hamda soliqqa oid munosabatlar raqamlashtirilganligiga qaramay, iqtisodiyotda soliqqa oid huquqbuzarlik holatlari hanuz uchrab turibdi.

Xususan, jamiyatda "obnal ishi" nomi bilan mashhur bo'lgan holatlarda davlat soliq xizmati organlari tomonidan pul mablag'larini naqdlashtirish bilan shug'ullangan 396 ta "bir kunlik firma" aniqlangan va ularning xizmatlaridan foydalangan qariyb 10 mingta tashkilot tomonidan qo'shilgan qiymat solig'i summalarining noqonuniy hisobga olinganligi belgilangan. Bunday holatlarni o'z vaqtida aniqlash va ularning oldini olish rivojlangan davlatlar tajribasiga tayangan holda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishni talab etadi. Mazkur holat ushbu tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqot jarayonida adabiyotlarni o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, soliqqa oid huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning ko'lamini kamaytirish bo'yicha mualliflar tomonidan turli fikr va mulohazalar bildirilgan.

Soliq riski — davlat va hududiy munitsipal organlarning o'z faoliyati jarayonida yuzaga keladigan rejalashtirilmagan moliyaviy yo'qotishlaridir. Soliq risklarining yuzaga kelishi va ularning jilovlanmasligi har qanday mamlakat iqtisodiyoti uchun sezilarli yo'qotishlarga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli vaziyatni o'z vaqtida va to'g'ri baholash hamda uni bartaraf etish choralari ko'rish muhim ahamiyat kasb etadi. Odatda soliq to'lovchilar soliqlarni minimallashtirish maqsadida soliq obyektlarini yashirishga urinadilar va natijada "xufyona iqtisodiyot" ishtirokchisiga aylanishlari mumkin.

Soliq risklarini yuzaga keltiruvchi asosiy omillar sifatida soliq qonunchiligining nobarqarorligi, yangi turdagi soliqlar va majburiy to'lovlarning joriy etilishi, ma'lum hududlarda qo'llanilayotgan narx siyosati hamda soliq yukining yuqoriligi qayd etilgan. Soliq risklarining yuzaga kelishini kamaytirish va ularning oldini olish uchun, birinchidan, soliq qonunchiligini barqarorlashtirish va uning ijrosini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish; ikkinchidan, soliqqa tortishga oid barcha unsurlarni to'liq ro'yxatga olish tizimini yo'lga qo'yish; uchinchidan esa, soliq yukini iqtisodiyotning asosiy qatlamlari uchun maqbul darajada ushlab turish zarurligi ta'kidlangan.

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD) tomonidan 2020-yilda chop etilgan qo'llanmada bugungi kunda iqtisodiy faoliyat turlari va shakllari keskin o'zgarib borayotganligi sababli soliq organlari oldida turgan dolzarb masalalar yoritilgan. Mazkur qo'llanmada soliq idoralari uchun samarali ma'murchilikni tashkil etishga xizmat qiluvchi integratsiyalashtirilgan platforma modeli taklif etilgan. Unda soliq organlari ma'lumotlar bazalarining tashqi manbalar bilan integratsiyalashuvi, integratsiya jarayonida uchraydigan muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llari keng tahlil qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida soliqqa oid huquqbuzarliklarning oldini olish va soliq nazoratini takomillashtirish masalalarini o'rganishda qiyosiy va statistik tahlil usullaridan, shuningdek, tasviriy statistika yondashuvlaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida davlat soliq xizmati organlari faoliyatiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ilmiy adabiyotlar hamda amaliy ma'lumotlar tahlil qilinib, ularning o'zaro bog'liqligi va samaradorligi baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, soliq solish obyektiga ega bo'lgan har qanday shaxsda soliq majburiyati yuzaga keladi. Mazkur

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 08.01.2010 yildagi PQ-1257-son <https://lex.uz/uz/docs/-1577065>




shaxs, eng avvalo, soliq to'lovchi sifatida hisobda turishi, soliqlar bo'yicha hisob-kitoblarni taqdim etishi hamda ularni o'z vaqtida to'lashi shart. Ushbu majburiyatlarning to'liq yoki qisman bajarilmasligi soliqqa oid huquqbuzarliklarni keltirib chiqaradi. Tadqiqot jarayonida respublikamizda so'nggi besh yil davomida o'tkazilgan soliq nazorati natijalari tahlil qilinib, eng ko'p uchragan huquqbuzarlik turlari aniqlandi va ular asosida quyidagi rasm shakllantirildi (1–rasm).

Tahlil natijalariga ko'ra, so'nggi 5 yil mobaynida soliq hisobotlarini taqdim etish tartibini buzish holatlari eng ko'p qayd etilgan huquqbuzarlik turi hisoblanadi. Jumladan, ushbu huquqbuzarlik 2016–yilda 34,6 ming marta, 2017–yilda 45,7 ming marta qayd etilgan bo'lsa, 2018–yilda keskin kamayib, 14,8 mingtani tashkil etgan. Biroq, 2019–yilda mazkur ko'rsatkich qariyb 3 barobarga oshib, 48,8 mingta holatga yetgan. 2020–yilda esa ushbu huquqbuzarlik turi bo'yicha qayd etilgan holatlar soni ikki barobarga qisqarib, 22,2 mingtani tashkil etgan.

Keyingi o'rinda eng ko'p qayd etilgan huquqbuzarlik turi to'lov intizomining buzilishi hisoblanadi. Mazkur huquqbuzarlik turi 2016–yilda 18,4 ming marta, 2017–yilda 14,4 ming marta va 2018–yilda 10,3 ming marta kuzatilgan. 2019–yilda ushbu ko'rsatkich keskin oshib, 34,3 mingtaga yetgan bo'lsa, 2020–yilda yana pasayish kuzatilib, 13,6 mingta holat qayd etilgan.

Shuningdek, 2016–2020–yillar davomida o'rta har yili 12,1 mingta holatda tadbirkorlik subyekti sifatida ro'yxatdan o'tmasdan faoliyat yuritish holatlari aniqlangan. Bunday holatlar, bir tomondan, soliq qonunchiligiga muvofiq soliq to'lovchilarga nisbatan ma'muriy javobgarlik choralarini qo'llashga sabab bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularning moliyaviy holatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, mazkur huquqbuzarliklar davlat budjeti daromadlarini shakllantirish jarayoni hamda soliq ma'murchiligi samaradorligiga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xususan, tadbirkorlik subyekti sifatida ro'yxatdan o'tmasdan faoliyat yuritish, hisobot ko'rsatkichlarini haqiqiy ma'lumotlardan farqli ravishda taqdim etish va daromadlarni yashirish kabi huquqbuzarliklar nafaqat soliq tizimi, balki butun iqtisodiyot uchun ham muayyan salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Jumladan, bu holatlar bozorda sog'lom raqobat muhitiga ta'sir ko'rsatishi hamda makroiqtisodiy indikatorlarning haqqoniy baholanishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Shu bois aksariyat rivojlangan davlatlarda, shu jumladan O'zbekiston Respublikasida ham tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish jarayonlari elektron shaklda amalga oshirilishi yo'lga qo'yilgan (1-rasm).



1-rasm. Ma'lumotlar bazasi strukturasi

Hozirgi kunda o'z tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishni istagan har qanday shaxs internet tarmog'i orqali real vaqt rejimida o'z biznesini ro'yxatdan o'tkazishi mumkin. Shuningdek, soliqlarni to'lash jarayonlarini yengillashtirish maqsadida shaxsiy kabinet va onlayn to'lov tizimlari orqali soliqlarni masofadan turib to'lash imkoniyatlari ham joriy etilgan. Biroq, yaratilgan qulayliklarga qaramay, huquqbuzarlik holatlarining keng ko'lamda uchrayotgani soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Soliq hisobotlarini taqdim etish tartibini buzish holatlarining oldini olish maqsadida dunyoning rivojlangan davlatlari, xususan, Janubiy Koreya, Daniya va Germaniya kabi mamlakatlarning soliq organlari ma'lumotlar bazalari soliq to'lovchilarning buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha axborot tizimlari bilan integratsiya qilingan. Bunda soliq to'lovchining hisob yuritish axborot tizimi belgilangan muddat va davrda soliq organlariga tegishli ma'lumotlarni avtomatik tarzda yuboradi.

Shuningdek, soliq organlari va banklar o'rtasida soliq to'lovchilarning soliq munosabatlariga oid tranzaksiyalari bo'yicha ham axborot almashinuvi yo'lga qo'yilgan. Natijada, soliq to'lovchi tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan summalar avtomatik tarzda hisoblab chiqilib, tayyor hisob-kitoblar tasdiqlash uchun soliq to'lovchiga taqdim etiladi. Mazkur jarayonlarning avtomatlashtirilishi soliq to'lovchilarni ortiqcha vaqt sarfi va byurokratik jarayonlardan xalos etib, soliq hisobini yuritishni sezilarli darajada yengillashtiradi (1-jadval).

1-jadval

Real vaqt rejimida idoralararo elektron aloqa orqali soliq organlariga taqdim etiladigan qo'shimcha ma'lumotlar ro'yxati

T/r	Ma'lumotlar nomi	Ma'lumotni taqdim qiluvchi idoralar
1	QQSning qaytarilishi bo'yicha haqiqiy xarajatlar to'g'risida mablag' oluvchilar kesimidagi ma'lumot	Moliya vazirligi
2	Berilgan davlat nafaqalari to'g'risida oluvchilar kesimidagi ma'lumot	Moliya vazirligi
3	Birja savdolari orqali amalga oshirilgan bitimlar to'g'risida (savdo predmeti, narx va hisob-kitob shartlari) savdo ishtirokchilari kesimidagi ma'lumot	"O'zbekiston Respublika tovar-xomashyo birjasi" AJ
4	Huquqni muhofaza qiluvchi va sud organlari tomonidan olib qo'yilgan mol-mulk hamda mablag'lar to'g'risidagi ma'lumotlar	Surishtiruv organlari, tergovga qadar tekshiruv, dastlabki tergov va sud organlari
5	Ko'chmas mulk va yer uchastkalari toifalari bo'yicha ma'lumotlar	Kadastr agentligi
6	Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va "pul yuvish" bilan bog'liq ma'lumotlar	Bosh prokuratura
7	Yuridik va jismoniy shaxslar kesimida amalda foydalanilgan elektr energiyasi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar	"Hududiy elektr tarmoqlari" AJ
8	Yuridik va jismoniy shaxslar kesimida amalda foydalanilgan tabiiy gaz hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar	"O'ztransgaz" AJ, "Hududiy gaz tarmoqlari" AJ
9	Yuridik va jismoniy shaxslar kesimida amalda foydalanilgan suv hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar	Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi
10	Yo'lovchi va yuk tashish to'g'risidagi ma'lumotlar	Transport vazirligi
11	Yuridik va jismoniy shaxslarning avtotransport vositalarini ro'yxatdan o'tkazish (qayta ro'yxatdan o'tkazish) hamda ular tomonidan amalga oshirilgan to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotlar	Ichki ishlar vazirligi Ichki ishlar vazirligi
12	Yuridik shaxslarning mansabdor shaxslariga qo'llanilgan jarimalar to'g'risidagi ma'lumotlar	
13	Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning joylashtirish vositalari hamda davolash muassasalarida vaqtincha ro'yxatdan o'tganligi to'g'risidagi ma'lumotlar	Ichki ishlar vazirligi, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi
14	Ro'yxatdan o'tgan fuqarolik holati dalolatnomalari va ularning tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar	Adliya vazirligi
15	Davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlar	Moliya vazirligi G'aznachiligi

Mamlakatimizda ushbu yo'nalishda ham qator ishlar amalga oshirilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-oktabrdagi "Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga



qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-2646-son qaroriga² muvofiq tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayoni soddalashtirildi hamda uni onlayn tartibda amalga oshirish yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4742-son qaroriga³ muvofiq o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari belgilab berildi va ularni elektron ro'yxatdan o'tkazish tizimi joriy etildi. Bundan tashqari, soliq mobil ilovasi orqali "Soliq hamkor" elektron xizmatidan foydalangan holda huquqbuzarlik holatlari haqida soliq organlariga xabar berish imkoniyati yaratildi. Shuningdek, onlayn nazorat-kassa mashinalari orqali shakllantirilgan cheklarni ro'yxatdan o'tkazish orqali yutuqli o'yinlarda ishtirok etish va qimmatbaho sovg'alarni qo'lga kiritish imkoniyati ham yo'lga qo'yilgan. Biroq, soliq ma'murchiligi tizimida ushbu mexanizmlarni yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud.

Ma'lumki, iqtisodiyotda norasmiy sektor ko'lamining kengayib borishi davlatning fiskal manfaatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda uning ijtimoiy xizmatlarni samarali ko'rsatish imkoniyatlarini cheklaydi. Yashirin iqtisodiyot adolatli jamiyat va sog'lom raqobat muhitining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Norasmiy bandlik va ijtimoiy badallarning to'lanmasligi fuqarolarning kelgusidagi ijtimoiy ta'minot darajasiga ham ta'sir etadi. Shuningdek, norasmiy iqtisodiyotning keng tarqalishi iqtisodiy xavfsizlik va huquqiy tartibot tizimiga ham muayyan salbiy oqibatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli, O'zbekistonda xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashishda barcha vositalardan, jumladan, fiskal instrumentlardan keng foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda (2-rasm).



2-rasm. Soliq tizimini raqamlashtirish orqali xufyona iqtisodiyotni qisqartirish usullari⁴

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda O'zbekistonda iqtisodiyotning norasmiy sektorini qisqartirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Shulardan eng muhimi moliya tizimida, xususan, budget-soliq siyosati yo'nalishida tub o'zgarishlarning amalga oshirilganligidir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-son Farmoni⁵ qabul qilinishi bilan 2019-2020-yillarda mamlakat soliq tizimida keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Mazkur islohotlarning natijalari o'rta muddatli istiqbolda norasmiy iqtisodiyot ko'lamining qisqarishiga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Soliqqa oid islohotlarning eng muhim yo'nalishlari sifatida quyidagilarni alohida ta'kidlash mumkin:

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 28.10.2016 yildagi PQ-2646-son <https://lex.uz/docs/-3063485>

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.06.2020 yildagi PQ-4742-son <https://lex.uz/docs/-4849607?ONDATE=28.02.2025>

4 Davlat statistika qo'mitasi va Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.06.2018 yildagi PF-5468-son <https://lex.uz/uz/docs/-3802378?ONDATE=28.12.2024%2000>

– turli samarasiz maxsus soliq rejimlarini bekor qilish hisobiga soliqqa tortish tizimi nisbatan unifikatsiyalashtirildi va shu orqali umumiy belgilangan (yirik biznes) hamda soddalashtirilgan (kichik biznes) soliq rejimlari o'rtasidagi soliq yukidagi keskin tafovut qisqartirildi;

– yengil soliq rejimini, ya'ni aylanmadan olinadigan soliq tizimini qo'llashda xodimlar soni emas, balki yillik tushum (aylanma mablag') miqdori asosiy mezon sifatida belgilandi;

– qator soliqlar, jumladan, ijtimoiy infratuzilma solig'i va maqsadli jamg'armalarga aylanmadan ajratmalar bekor qilindi, shuningdek, ayrim soliqlar (yagona soliq va yagona ijtimoiy to'lov) bazasini aniqlashning eng kam me'yorlari amaliyotdan chiqarildi;

– jismoniy shaxslar daromad solig'ining ko'p bosqichli progressiv stavkalari o'rniga yagona proporsional soliq stavkasi joriy etildi;

– ish haqi bilan bog'liq soliqlar (daromad solig'i va ijtimoiy soliq), qo'shilgan qiymat solig'i hamda mol-mulk solig'i stavkalarining pasaytirilishi, shuningdek, korxonalar mol-mulk solig'i obyektlari tarkibida faqat ko'chmas mulk obyektlarining qoldirilishi orqali xo'jalik yurituvchi subyektlarning soliq yuki sezilarli darajada kamaytirildi.

Tadbirkorlik subyektlari uchun soliq yukining umumiy qisqartirilishi, mehnatga haq to'lash bilan bog'liq soliqlarning pasaytirilishi O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotni qisqartirish, norasmiy bandlik darajasini kamaytirish hamda "konvert usuli"da ish haqi to'lash kabi salbiy holatlarni cheklashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar va ilmiy izlanishlar natijalaridan kelib chiqib, soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish bo'yicha bir qator ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Jumladan, soliq va moliyaviy hisobotlarni topshirish tartibini buzish bilan bog'liq huquqbuzarliklarning oldini olish hamda ularni kamaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan axborot almashinuvini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda soliq organlari va banklar o'rtasida soliq to'lovchining hisobot davrida bank aylanmasiga ega yoki ega emasligi to'g'risida axborot almashinuvi tashkil etilishi lozim. Amaldagi bank siri talablariga rioya qilgan holda soliq to'lovchining aylanma summasi emas, balki aylanma mavjudligi yoki mavjud emasligi haqidagi ma'lumot taqdim etilishi mumkin. Mazkur ma'lumotlardan kelib chiqib, tegishli soliq davrida bank aylanmasini amalga oshirmagan soliq to'lovchilarni aylanma bilan bog'liq soliqlar bo'yicha hisobot topshirish majburiyatidan ozod etish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, soliq hisobotlarini topshirish jarayonida hisoblangan soliq summalarini avtomatik tarzda soliq to'lovchining bank hisobvarag'idan undirish bo'yicha elektron oferta tizimini joriy etish tavsiya etiladi. Agar soliq to'lovchi ushbu ofertani qabul qilsa, hisoblangan soliq summasi uning bank hisobvarag'idan avtomatik ravishda yechib olinadi. Mazkur tizim soliqlarni o'z vaqtida undirish hamda soliq intizomini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, tadbirkorlik subyektlari tomonidan resurs soliqlari bo'yicha hisobot topshirish jarayonlarini avtomatlashtirish zarur hisoblanadi. Buning uchun soliq organlari hamda resurs soliqlari obyektlari hisobini yurituvchi tashkilotlar, jumladan, Kadastr agentligi va suv ta'minoti korxonalari bilan integratsiyalashgan axborot almashinuvi tizimini yo'lga qo'yish lozim. Natijada soliq to'lovchilarning mavjud obyektlari va ularning hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar avtomatik ravishda soliq hisobotlari bilan integratsiya qilinadi. Shu bilan birga, onlayn nazorat-kassa mashinalari orqali shakllantirilgan cheklar asosida tashkil etilayotgan yutuqli o'yinlar o'rniga qo'shilgan qiymat solig'i summasi hisobidan CASHBACK tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Chunki amaldagi yutuqli o'yinlar tizimida faqat ayrim xaridorlarga rag'batlantirilmoqda. CASHBACK tizimi esa barcha iste'molchilarga xarid miqdoridan kelib chiqib ma'lum summa qaytarilishini taminlaydi hamda xaridorlarni teng ravishda rag'batlantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Artemenko D.A., Aguzarova L.A., Aguzarova F.S., Porollo E.V. (2017). "Causes of Tax Risks and Ways to Reduce Them". – Pp. 454–458.
2. OECD (2020). *Tax Administration 3.0: The Digital Transformation of Tax Administration*. – Pp. 10–24.
3. Kodeks (2023). O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq kodeksi. / Code (2023). *Tax Code of the Republic of Uzbekistan in the new edition*.
4. Farmon (2020). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020–yil 30–oktabrdagi "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF–6098–son Farmoni. www.lex.uz
5. Qaror (2010). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010–yil 8–yanvardagi "Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–1257–son qarori. www.lex.uz
6. Qaror (2012). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012–yil 30–oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati idoralari axborot-kommunikatsiya tizimi faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–1843–son qarori. www.lex.uz

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100